

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA EVFEMIZMLARNING
QO‘LLANILISHI (“ANOR” VA “DAHSHAT” HIKOYALARI ASOSIDA)****Mardonova Sug‘diyona Nasibillo qizi***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**Urgut filiali O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi***Mardonova Nafosat Nasibillo qizi***Samarqand viloyati Urgut tumani 34- maktab**"Ona tili va adabiyoti" fan o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek hikoyachiligining otasi bo‘lgan Abdulla Qahhorning “Anor” hamda “Dahshat” hikoyalarida ishlatilgan evfemizmgga oid so‘zlarning izohlari beriladi. Bizga shunisi ma‘lumki, Abdulla Qahhor o‘z asarlarida kam so‘z qo‘llab, ko‘p ma‘noni hosil qilishga intilgan. Shundan kelib chiqib, mazkur hikoyalardagi ba‘zi evfemik so‘zlarning izohlarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Dahshat, anor, evfemiz, evfemizmlarning ishlatilishi, go‘riston, jon bermoq, xuruj qilmoq, gurkiramoq, jadallamoq, yuragini qon qilmoq, gerdayib turmoq, serpul odam.

O‘zbek adabiyotining takrorlanmas siymosi bo‘lgan Abdulla Qahhor o‘z asarlari bilan faqatgina adabiyot faniga oid ma‘naviy xazinamizni boyitib qolmasdan, balki tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham o‘z hissasini qo‘shdi. Mohir so‘z san‘atkori Abdulla Qahhor so‘zlarni ayab, bir so‘z bilan katta va teran fikrlarni ifoda qila olish qobiliyati bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi. Uning har bir asarida yurtga muhabbat, ozodlikka erishish, qiyinchiliklardan yorug‘ kunlarga chiqish, yurt dardini o‘z dardidek ko‘rish kabi mavzular yetakchilik qiladi. Uning qaysi bir asarini olmaylik, asarning mazmuni insonni o‘yga toldiraveradi. Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida “Mohir hikoyanavis” nomi bilan insonlar qalbidan joy olgan. Shu o‘rinda adibning “Anor” va “Dahshat” hikoyalarida ishlatilgan evfemizmgga oid so‘zlarni tahlil qilar ekanmiz, ishni, eng avvalo, asarning bosh mavzusiga nazar tashlashdan boshlaymiz.

“Dahshat” hikoyasining nomlanishiga e‘tibor berishimiz lozim. Agar biz bu hikoyadan “dahshat” so‘zining o‘zini evfemik jihatdan tahlil qilsak, asarning bosh g‘oyasi shu so‘z orqali ro‘yobga chiqqanligiga amin bo‘lamiz. Bu so‘zning o‘rnida *nihoyat darajadagi qo‘rqinch, xavf, vahima, azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol, ortiq darajada qo‘rqqan kishining ruhiy holati* kabi ma‘nodoshlari ham qo‘llanilsa bo‘lar edi, lekin bu so‘zlardagi ma‘no asar mazmunini to‘liq ochib berolmaydi. Evfemizmlarning turlari bo‘yicha tahlil qilganimizda “dahshat” so‘zini qo‘rqituvchi hodisalar yoki voqealar bilan bog‘liq turiga kiritishimiz mumkin. Evfemizmgga kiradigan so‘zlarni turlarga ajratish bilan shug‘ullangan tilshunos olimlar so‘zlarning turli belgilariga asoslangan holda u yoki bu darajada tasniflashni amalga oshirishga harakat qilishgan. Hodisa boshqa lisoniy birliklardek serqirra

bo‘lgani kabi bu tasniflarda evfemizmlarning qirralariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, qo‘lga kiritilgan natijalar ham turlicha.

Asarda “go‘riston” so‘zining ham ishlatilishi asarning badiiyligini yanada oshirgan. Bu so‘z ham o‘zida juda katta disfemik ma‘noni yuzaga chiqaradi, asarning ta’sirchanligini oshiradi va uning yana kitobxon bilan do‘st tutinishga undaydi. Mazkur so‘z, ya’ni go‘riston so‘zining o‘rniga yozuvchi *qabriston*, *mozoriston* kabi so‘zlarni keltirishi mumkin edi, biroq go‘riston so‘zi orqali asardagi voqealar qanchalar qo‘rqinchli ekanligi ochib berilgan va hayotga juda ham yaqinligi bilan kishida qandaydir bir g‘ayritabiiy hisni uyg‘otadi.

Asar davomida shunday bir mudhish voqea borki, u insonning dilini xira qiladigan darajada ayanchli yozilgan. Bu voqeada Unsin go‘ristondan qaytganda dodxohning yoniga kirib, unga qarab turdi. Shunda dodxoh unga qarab ichida “jon beryotibdi” degan o‘y bilan yana uyqusini davom ettiraveradi. Bunda qo‘llangan “jon beryotibdi” evfemik so‘z orqali yozuvchining nimani nazarda tutayotganligi anglashiladi. “Jon bermoq” iborasidan tashqari uning o‘rniga *omonatini topshirmoq*, *vafot etmoq*, *joni chiqmoq*, *joni uzilmoq* iboralarini ham qo‘llashimiz mumkin. Biz agar bu so‘zni turlar bo‘yicha tahlil qilsak, o‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar tasnifiga kiradi. Salbiy yoki hajviy qahramon nutqidan ijobiy, madaniyatli obraz nutqi farqlangani bois, o‘z navbatida, evfemik ma’nolar ham bir necha turga ajraladi. Dastlab, o‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar mazmuniga ko‘ra diniy va dunyoviy evfemalarga ajraladi. Tilshunos olim A. Omonturdiyev “diniy evfemalar ko‘proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga – Xudo huzuriga borishi, jannat yoki do‘zaxdan joy olishi kabi tushunchalar asosida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shu kabi *jon bermoq*, *ajalga omon bermoq*, *mangulik uyquga ketmoq* kabi dindorlar nutqiga xos evfemik ma’noli birliklar qatorida *ajal chaqiraman* ifodasi ham yangicha bir shakl sifatida o‘rin oladi. Davr o‘tishi bilan bir guruh evfemalarning dunyoviylashgani xususida ham tilshunos o‘z fikrlarini bayon etgan. Ayni guruhga *so‘nggi soati yetmoq*, *qazo qilmoq* kabi evfemik ma’noli birliklar misol bo‘la oladi. Shuningdek, *bosh leksemi* bilan birikkan *ket-*, *ol-* kabi fe’llar ham “o‘lmoq” tushunchasini ifodalovchi evfemizmlardir [3].

Asardagi evfemizmlarni tahlil qilar ekanmiz, “shamolning xuruj qilishi” birikmasi juda diqqatimizni o‘ziga jalb qildi. Bu yerda biz “xuruj qilmoq” fe’liga e’tibor bersak, uning asl ma’nosi *issiq*, *sovuq*, *shamol*, *yomg‘ir*, *o‘t*, *suv* kabi *tabiat kuchlarining hamlasi*; *avjiga chiqishi*, *kuchayishi* kabi ma’nolarda keladi. Misol qilib olsak, shamol yana xuruj qiladi, daraxtlarning ko‘ksini tilka-pora qilib shovulladi. Bu kabi ma’nolardan tashqari *kasallikning kuchayishi*, *biror salbiy narsaga berilib ketish*, *ruju qo‘yish* ma’nolari xalq orasida barchaga birdek tushunarli. Chunki xuruj qilmoq fe’lini xalqimiz kasallikka nisbatan juda ham ko‘p ishlatiladi. “Xuruj qilmoq” qo‘shma fe’lini maishiy evfemizmlar turiga kiritsak bo‘ladi. Inson hayotida yuz beradigan barcha jarayon, hodisa, shaxslarning “birlamchi nom o‘rnida qo‘llanadigan evfemistik ifodalari mavjud, ular tilda mavjud nomlarning funksional-semantik sinonimlari” sifatida qo‘llaniladi. Xususan, o‘zbek tilida bu kabi “tutqich bermas” ifodalari benihoya ko‘pligi, tildagi so‘zlarning o‘zgaruvchanligi, yumor, kinoya usullarining o‘ziga xosligi diqqatga sazovor. Shu o‘rinda yana bir maishiy evfemizmlar turiga kiruvchi “alanganing gurkirashi” birikmasi ham o‘zbek tilining naqadar boy va har bir so‘zida olam-

olam ma’no borligidan darak beradi. Shu o’rinda *gurkiram*oq fe’lining evfemik ma’nodoshlarini keltirib o’tamiz: *o’smoq*, *rivojlanmoq*, *palak otmoq* kabi so’zlarni keltirishimiz mumkin. Gurkiram oq – kuchli darajada rivojlanmoq ma’nosini bildirib, ko’proq bu so’z o’simliklarga nisbatan ishlatiladi.

Jamiatimizda axloqiy qarashlar qanchalik teran va mukammal bo’lsa, u rivojlansa, jamiyatning madaniy darajasi yuqori saviyada bo’lsa, u tilda odobli, nozik ifodalar, yaratilgan evfemizmlar shunchalik ko’p namoyon bo’laveradi. Evfemizmlar yordamida taqdim etilgan so’zlar, ma’lumotlar, voqea-hodisalar kimga mo’ljallanganligi va uni olishdan manfaatdor bo’lgan kishilarga, ularning ruhiyatiga qanday ta’sir o’tkazishining natijasida ayon bo’ladi. Abdulla Qahhor asarlarida ham mana shunday har bir so’zni ehtiyotkorlik bilan inson qalbiga og’ir botmaydigan qilib ishlatganligiga guvoh bo’lamiz. Abdulla Qahhor hikoyalarida hayotdagi va inson tabiatidagi turli-tuman nuqsonlarni tanqid qilgan. Odamzod mavjud ekan, baxillik, johillik, ochko’zlik, maqtanchoqlik, xudbinlik va boshqa qusurlar qurshovida yashaydi. Bu qusurlar kimdadir kamroq bo’lishi mumkin, lekin bunday illatlar insonning qadr-qimmatini pastga uradi, barkamol shaxs bo’lib yetishishga yo’l qo’ymaydi. Mana shunday masalalarni Abdulla Qahhor hikoyalarida evfemik vositalar orqali xalqqa yetkazishga harakat qilgan.

Asarni tahlil qilib borar ekanmiz, uning naqadar mazmuni chuqur ma’noga egaligi bilan o’ziga jalb qildi. Shu o’rinda Unsinning “umrlilik orzu” evfemik birikmasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, shu birgina birikma orqali ijodkor uning qanday holatda hayot kechirayotganini ko’rsatishga harakat qiladi. Yozuvchi o’sha vaqtda yashash juda qiyinligini ko’rsatadi, ayniqsa, dodxohdek zolim inson uyini zulm, zo’ravonlik bilan saqlab kelayotganini ko’rishimiz mumkin. Lekin shunday vaziyatda ham Unsin hayotga tan bermay, o’z erki uchun kurashdi. Shuningdek, bu birgina birikma orqali besh oylik kelinchak bo’lmish Unsin bu dargohdan bosh olib ketishi, o’z uyiga qaytishi, o’zi tengi dugonalari bilan suhbat qurib, dardlashish istagida har qancha qiyin shart bo’lsa ham o’ta qiyin shartni bajarishga harakat qiladi. Bu shart esa kechasi qabristonga borib, choy qaynatib kelish edi. Yoshgina kelinchak uchun bundan ortiq vahimali, qo’rqinchli ish bo’lishi mumkin emas. Ammo Unsin o’z hayotiga qaytishi uchun, erkini qo’liga olishi uchun rozi bo’ladi. Yozuvchining mahorati shundaki, u qahramoni Unsin halokatini faqatgina dahshat, qo’rqinch yoki xavf tarzida ko’rsatib bermaydi, balki o’z erkinligi yo’lida hatto hayot bilan ham qarama-qarshi boroladigan inson qiyofasini yaratgan. “Umrlilik orzu” birikmasini ham biz maishiy evfemizmlar turiga kiritishimiz mumkin.

Ijodkorning bahs-munozaralarga sabab bo’lgan “Anor” nomli hikoyasida jamiyat keltirib chiqargan ijtimoiy qashshoqlik va uning oqibatlariga haqida yozilgan. Bu hikoya ko’plab tanqidchi olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan. Birgina buyuk tanqidchi olim Ozod Sharafiddinovning tahliliga to’xtalib o’tadigan bo’lsak, olim hikoya haqida quyidagicha xulosaga keladi: “Turobjon va xotining fojiasi baxtsizligining sababi – ijtimoiy tengsizlikdir”. Olim hikoyani sotsializm talablariga ko’ra insonlarni ijtimoiy jihatdan baravar qilib yashashini har tomonlama tahlil qiladi. Ammo hech bir jamiyatda fuqarolar ijtimoiy jihatdan teng huquqli emaslar. Buning isboti “Anor” hikoyasida ham o’z

aksini topgan. Mazkur hikoyada ijtimoiy tengsizlik bilan bir qatorda o‘sha davrning juda katta fojialaridan biri – nochorlik, kambag‘allik kabi illatlar aks ettirilgan. Asar bosh qahramoni Turobjon nochorlik, kambag‘alchilik tufayli xotining boshqorong‘u paytida yegisi kelgan anorni olib berolmagani va xotini g‘ururiga tegib gapirishi oqibatida, hatto o‘g‘irlikka borish holati tasvirlanadi. Bir necha olimlar tomonidan hikoyada “anor” detali noto‘g‘ri tanlanganligini, negaki hech bir zamonda anor mevasi qimmat sotilmaganligini aytib o‘tishgan [4]. Endi shu fikrlardan foydalangan holda o‘z fikrlarimni aytib o‘tsam, anor detali mening nazarimda to‘g‘ri tanlangan, sababi o‘sha vaqtlardagi nochorlik, kambag‘alchilik tufayli insonlar anor tugul non ham olib yeya olmagan, qarangki, urush yillarida non ham qimmat hisoblanmagan. Bunga shunday xulosaga kelish mumkin: “O‘sha davrdagi insonlar uchun non yeyish shukronalik hissi bo‘lsa, anor ularning xayollaridagi orzu bo‘lib qolgan”. Bundan tashqari hikoyada “anor” detali majoziy yuk ham tashigan. Ijodkor nochorlik sababli Turobjon va xotini o‘rtasida darz ketgan munosabatlarni anor donalari kabi sochilib ketganligiga qiyoslaydi. Ana shunday shafqatsiz ocharchilik davrida taqdirning ayovsiz kaltagi oddiy xalqning boshiga yo‘g‘rilgan.

Abdulla Qahhorning har bir hikoyasida yoshlar yetakchilik qiladi. “Anor” hikoyasida ham yoshlar Turobjon va uning xotini asosiy rol o‘ynaydi. Asarda Turobjonning bir tomonda o‘zbekning sodda va ishonuvchan yigiti sifatida ko‘ramiz, lekin ikkinchi tomondan esa mas‘uliyatli erkak sifatida gavdalanadi. Asarda Turobjon xotiniga murojaat qilish holatini olsak: “Kishining yuragini qon qilib yuborasan!” – deb aytishi. Bu yerda “yuragini qon qilmoq” iborasini evfemizm so‘z sifatida izohlaydigan bo‘lsak, u *diltang bo‘lmoq, ziq bo‘moq, yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq, yuragi ezilmoq* kabi iboralar ma‘nodoshligini hosil qiladi. Chunki bu yerda ham aynan yo‘qchilik holati tasvirlangan. Istak bor-u, lekin imkoniyat yo‘q qabilidagi holati tasvirlangan.

Hikoyada insonning dilini xira qiladigan yana bir jihat borki, biz bu yerda ham yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratiga qoyil qolmasdan imkonimiz yo‘q, hikoya oxirida Turobjon xotiniga: “Mendan ham serpulroq odamga turmushga chiq!” – deb qilgan xitobi insonni bir nafas bo‘lsa ham ko‘ngliga og‘ir botadigan o‘y-kechinmalar kelishi, shubhasiz. Bu yerda ishlatilgan *serpul odam* birikmasi bizning nazarimizda *boy, badavlat, boyvachcha, o‘ziga to‘q odam* kabi sinonimik qatorni tashkil qiladi. Bu so‘zni niqoblivchi evfemizmlar turini tashkil qiladi.

Abdulla Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo‘lib o‘tgan voqea, real hayotning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi. Hikoyalarning ko‘pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor hikoyalari hayotdan olinganligi bilan insonni hayot yo‘llarida qoqilmaslikka undaydi. Hayotdagi qiyinchiliklarga bardosh berishni, barga ham, yo‘qqa ham chidashni insonga o‘rgatadi. Abdulla Qahhor asarlarini tahlil qilishda o‘sha davrning muammolaridan bo‘lmish qashshoqlik, ilmsizlik, loqaydlik qoralanadi. Iqtisodiy imkoniyatlar chegaralanganligi sababli odamlarni ma‘naviy jihatdan ham ilm

olishi cheklanganligi haqida so‘z olib boriladi. Boy va kambag‘al, yetim, beva-bechoralar o‘rtasidagi farq, munosabatlar va inson qadr-qimmati o‘sha davr muhitida yoritib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Qahhor. Dahshat va Anor (hikoya). – T., Adabiyot uchqunlari, 2018.
2. X. Qodirova. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm.—T., Bookmany print, 2022.
3. A. Omonturdiyev. Bir so‘z lug‘ati.—Termiz: Jayhun, 1996.
4. Z. To‘lanova. Abdulla Qahhor asarlari tahlili.